

### **Kutilayotgan natijalar:**

- o'quvchilar tabiiy materiallardan buyumlar yasashda foydalana oladilar;
- o'quvchilar tabiiy materiallarning xilma-xilligi haqida tasavvurga ega bo'ladi;
- o'quvchilar buyum yasashda tasavvur va ijodkorliklarini qo'llay oladilar;
- o'quvchilar plastilindan shakl yasash texnikasini qo'llay oladilar.

## **12-DARS. QIRQAMIZ-YELIMLAYMIZ**

### **Dars maqsadlari:**

- qog'ozdan shakllarni qirqish, kesish, bukish va yelimlash texnikasi haqidagi tushunchalarni kengaytirish;
- fazoviy va ko'rgazmali-tasviriy tafakkurni rivojlantirish;
- muloqot va hamkorlik kabi kompetensiyalarni shakllantirish (juft bo'lib ishlash, faol tinglash, o'z fikrini ifodalash, suhbat olib borish, maqsad qo'yish va unga erishish qobiliyat);
- yakuniy natijaga erishish uchun harakatlar ketma-ketligini to'g'ri bajarish qobiliyatini rivojlantirish;
- xavfsizlik texnikasiga rioya qilishning muhimligini tushunishni shakllantirish.

**Kerakli materiallar:** darslik, qaychi, yelim, buyum namunasi.

### **1. Tashkiliy qism (2-3 daqiqa).**

O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashadi. Davomat va darsga tayyorgarlikni tekshiradi.

### **2. Dars mavzusini e'lon qilish. Dars mavzusiga kirish (2-3 daqiqa).**

O'qituvchi savollar beradi:

Kubiklar bilan o'ynashni yoqtirasizmi?

Kubiklardan nimalar qurishni yaxshi ko'rasisiz?

Sizningcha, kubiklar bilan o'ynash qanday foyda keltiradi?

Kubiklardan biror narsa qurish qobiliyati nimaga o'rgatadi, qayerda kerak bo'lishi mumkin?

O'quvchilarning javoblaridan so'ng o'qituvchi bugungi darsda o'quvchilar kubiklardan inshootlar qurishini ma'lum qiladi. Lekin avval kubiklar yasab olish kerak. O'quvchilar 5-6 kishilik guruhlarga bo'linishlari lozim. Har bir guruhning vazifasi o'z inshootini o'ylab topish, buning uchun

qanday shakldagi kubiklar kerakligini aniqlash va ishni guruh a'zolari o'rtaida taqsimlashdan iborat.

Darslikning 67-70-betlaridagi qirqma sahifalarda bukish va kesish chiziqlari ko'rsatilgan yoyilmalar berilgan. Yakuniy natijaga erishish va inshootni qurish uchun o'quvchilar kim qaysi shaklni tayyorlashini taqsimlashlari kerak.

### **3. Namuna tahlili (5 daqiqa).**

Darsning bu qismi standart tuzilishga ko'ra o'tkaziladi.

Darslikda o'quvchilarga yordam sifatida video ko'rsatma berilgan bo'lib, ular shu asosida ish rejasini tuzishlari va amaliy qismni bajarishlari mumkin.

O'qituvchi savollar beradi:

Shakllarni qanday qirqish kerak? (Kontur bo'ylab, kesish chizig'i bo'ylab, ehtiyyotkorlik bilan).

Shakllar va ularning chetlarini qanday bukish kerak? (Bukish chizig'i bo'yicha).

Shakllarni qanday yelimlash kerak? (Yelimni ehtiyyotkorlik bilan, yelimanadigan joylarga surish).

### **4. Amaliy qism (25 daqiqa).**

Avvalo, o'quvchilarga darslikning oxiridagi qirqma sahifalardagi shakllar konturlarini qirqib olish taklif etiladi.

Dastlab o'quvchilar shaklni qirqib oladilar, uning chetlarini bukish chizig'i bo'yicha bukadilar va shundan so'ng yelimanadigan joylarni yopishtiradilar.

Ish mustaqil bajariladi. Zarur bo'lsa, o'qituvchi yordam beradi.

### **5. Yakunlash va mulohaza (5 daqiqa).**

O'quvchilar quyidagi savollarga javob beradilar:

Darsda nima qiyin bo'ldi?

Qanday buyum yasadingiz?

Olgan bilimlaringiz hayotda qanday asqotadi?

#### **Kutilayotgan natijalar:**

- o'quvchilar qog'ozdan shakllarni qirqish, kesish, bukish va yelimlash texnikasini tushunib oladilar;
- o'quvchilarning tasavvuri va ijodkorliklari rivojlanadi;
- o'quvchilarning jamoada ishlash ko'nikmalari shakllanadi;
- o'quvchilarning yakuniy natijaga erishish uchun harakatlar ketma-ketligini to'g'ri bajarish qobiliyatini rivojlanadi.